

## PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV: BUYUK BRITANIYA TAJRIBASI ASOSIDA



**Nigmatov Ruftullo Olimjonovich**

*IIV Akademiyasi boshlig'i o'rinbosari, professor*

**Kuchkarov Turg'un Raximbayevich**

*yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent*



**Asqarov Mirzoxid Mirjalol o'g'li**

*yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini zamonaviy metodlar va xalqaro tajribalar asosida baholash faoliyati tahlil qilingan. Buyuk Britaniyaning PEEL, SPR, EMMIE va SARA kabi ilg'or modellari asosida profilaktik chora-tadbirlarni baholashning shaffof, samarali va innovatsion yondashuvlari atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, unda milliy tizimdagi mavjud raqamli platformalar faoliyati tahlil qilinib, mustaqil monitoring va ilmiy yondashuvlar orqali samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** profilaktika, samaradorlik, PEEL, EMMIE, SARA, innovatsiya, baholash, raqamli platforma, monitoring, jamoat xavfsizligi, resurslar, shaffoflik.

### ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕР: НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО ОПЫТА ВЕЛИКОБРИТАНИИ

**Аннотация:** В статье анализируется деятельность по оценке системы профилактики правонарушений на основе современных методов и международного опыта. Подробно изучены эффективные и инновационные подходы к оценке профилактических мероприятий на основе передовых британских моделей, таких как PEEL, SPR, EMMIE и SARA. Также проанализирована деятельность существующих цифровых платформ в национальной системе и выдвинуты конкретные предложения по повышению эффективности посредством независимого мониторинга и научных подходов.

**Ключевые слова:** профилактика, оценка эффективности, PEEL, EMMIE, SARA, инновации, цифровая платформа, мониторинг, общественная безопасность, ресурсы, прозрачность.

## INNOVATIVE APPROACH TO EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF PREVENTIVE MEASURES: BASED ON THE ADVANCED EXPERIENCE OF THE UNITED KINGDOM

**Abstract.** This article analyzes the activities of assessing the crime prevention system based on modern methods and international experience. Transparent, effective and innovative approaches to assessing preventive measures based on advanced models of Great Britain, such as PEEL, SPR, EMMIE and SARA, are studied in detail. It also analyzes the activities of existing digital platforms in the national system and puts forward specific proposals for increasing efficiency through independent monitoring and scientific approaches.

**Keywords:** prevention, efficiency, PEEL, EMMIE, SARA, innovation, assessment, digital platform, monitoring, public safety, resources, transparency.

**S**o'nggi yillarda mamlakatimizda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularga barham berish, shuningdek, huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etishning o'ziga xos amaliyoti yo'lga qo'yilishi natijasida qator ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi.

Biroq, bugungi kundagi tahlillar huquqbuzarliklarning oldini olishga asosan huquqiy nuqtai nazardan e'tibor qaratilib qolinayotganini, faoliyatiga kompleks ilmiy-amaliy yondashuv, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini baholash jihatdan ham yondashish kerakligini ko'rsatmoqda. Bu esa rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini ilmiy tadqiq etishni va milliy qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq qilishni taqozo etmoqda. Bu borada Buyuk Britaniya tajribasi O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan samarali model hisoblanadi. Quyida Buyuk Britaniya profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini baholashda foydalanib kelayotgan tashkiliy, texnik va huquqiy mexanizmlarni ko'rib chiqamiz.

Buyuk Britaniyaning profilaktik chora tadbirlar samaradorligini baholash tajribasi davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi muvofiqlashgan hamkorlik, ilg'or metodologiya va ma'lumotlar tahliliga asoslanadi hamda huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning ijtimoiy sabablarini bartaraf etishda yuqori natijalarga erishganligi bilan ajralib turadi.

1. Buning asosiy omillaridan biri **HMICFRS (His Majesty's Inspectorate of Constabulary and Fire & Rescue Services)** tashkilotining

“**PEEL hisoboti**” [1] kabi innovatsion dasturlarning amaliyotga samarali joriy etilganidir.

PEEL (Police Effectiveness, Efficiency and Legitimacy) tizimi politsiyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularning oldini olish faoliyatini baholashda muhim vosita hisoblanadi. PEEL tekshiruvlari 1829-yilda Robert Peel tomonidan ishlab chiqilgan 9 ta Peelian tamoyiliga asoslangan. Ushbu tizim HMICFRS tashkiloti tomonidan 2014-yildan beri amalga oshiriladi. PEEL tizimining asosiy maqsadi jamoat xavfsizligini ta'minlash, politsiya faoliyatini qonuniy va samarali yo'lga qo'yish, tizimdagi xato va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat [2].

PEEL tizimida mamlakatdagi barcha politsiya bo'linmalari quyidagi uch yo'nalish bo'yicha baholanadi:

**natijadorlik** – jinoyatlarni aniqlash va oldini olish, jinoyatdan jabrlangan va ijtimoiy ko'makka muhtoj shaxslarning kafolatlangan himoyasini ta'minlash hamda tabiiy ofatlar va boshqa hodisalarga nisbatan zudlik bilan javob berish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi;

**resurslar va kuch-vositalardan samarali foydalanish** – bu, asosan, budget mablag'lari hamda mavjud kuch-vositalardan oqilona foydalanish va faoliyatni raqamlashtirishni nazarda tutadi;

**qonuniylikni ta'minlash** – politsiyaning aholi bilan ishonchli aloqa o'rnatgani, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikni kuchaytirgani, xodimlarning axloq-odob qoidalari va qonunchilikka rioya qilishi, irqiy va ijtimoiy tenglikni ta'minlashi bilan bog'liq.

***O'rganilayotgan idora faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi:***

qonunchilikka rioya qilish darajasi (shu jumladan, xizmat intizomi);

aholining politsiyaga nisbatan ishonchi (so'rovnoma va muloqot asosida);

jinoyatchilik statistikasi (shu jumladan, ish hajmi, uning to'g'ri taqsimlanganligi va natijalar);

moliyaviy samaradorlik (iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish);

ichki nazoratning darajasi (ichki kuzatuv va hisobotlar orqali).

HMICFRS tashkiloti asosan mustaqil tekshiruvlar, intervyular, aholi o'rtasida so'rovnoma va politsiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlar tahlili orqali dalillarni to'playdi.

PEEL tizimida baholash 2023-yildan boshlab quyidagi beshta shkalada amalga oshirilmoqda:

**outstanding** (a'lo);

**good** (yaxshi);

**adequate** (qoniqarli);

**requires Improvement** (yaxshilanishi kerak);

**inadequate** (yetarli emas).

***O'rganishlar quyidagi savolnoma asosida amalga oshiriladi:***

jamoatchilik bilan aloqalar, ularga nisbatan adolatli, munosib va hurmat bilan munosabatda bo'lish darajasi qanday?

jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati qay darajada samarali tashkil etilgan?

aholi va jamoatchilik vakillarining murojaatlarini qabul qilish va o'z vaqtida javob berish faoliyati to'g'ri tashkil etilganmi?

jinoyatlarni tergov qilish faoliyatining natijadorligi qay darajada?

jinoyatdan jabrlangan va boshqacha tarzda ko'makka muhtoj shaxslarni huquqlari ta'minlanganmi, ularga o'z vaqtida malakali yuridik va boshqa xizmatlar ko'rsatilganmi?

jinoyatchilar va boshqa toifadagi huquqbuzarlar ustidan politsiya nazorati qay darajada ta'minlangan?

og'ir va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi qanday?

tashkilotdagi ichki muhit, xodimlarning ijti-

moiy himoyasi, ularga yaratilgan shart-sharoit, tizimda axloqiy, qonuniy va inklyuziv ish muhiti yaratilganmi?

faoliyatni samarali, ta'sirchan va barqaror bo'lishini ta'minlash uchun rahbarlik va boshqaruv faoliyati to'g'ri tashkil etilganmi?

xodimlarning xizmat faoliyatini nazorat qilish jarayoni qanday?

maxfiylik tartibi va boshqa ma'lumotlarni himoya qilish, korrupsiya darajasi qanday?

jinoyatdan jabrlangan shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati qanday? (bu savol asosida olingan ma'lumotlar baholashga ta'sir qilmaydi).

HMICFRS Buyuk Britaniyadagi 43 ta politsiya xizmati va 45 ta yong'in-qutqaruv xizmati faoliyatini baholovchi mustaqil davlat organi sifatida faoliyat yuritadi. U baholash natijalarini Parlamentga taqdim etadi. Hisobotlar jamoat uchun ochiq bo'lib, ularda politsiya xizmatlarining kuchli va zaif tomonlari ochiq muhokama qilinadi. Masalan, tashkilotning 2023-yil yakuni bo'yicha hisobotlarida ayrim hududlardagi politsiya xizmatlarining jamoatchilik bilan muloqot qilishdagi zaifligi va raqamli texnologiyalardan ortda qolayotgani tanqid qilingan, shuningdek, raqamli monitoringni kuchaytirish va xodimlar xulq-atvorini yaxshilash tavsiya etilgan [3].

Buyuk Britaniyada mutaxassislar tomonidan har bir PEEL tekshiruvlari natijalarini tahlil qiladigan, yoritib boradigan hamda tavsiyalar berib boradigan alohida bloglar mavjud [4]. Ushbu bloglarda yuqoridagilardan tashqari faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan politsiyaning serjant, inspektor va boshqa xodimlarining huquqiy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirib borishga mo'ljallangan bepul huquqiy maslahatlar ham berib boriladi.

PEEL tizimi HMICFRS tashkilotining asosiy baholash vositasi bo'lib, uning natijalari "State of Policing" yillik umumiy tahlilida milliy darajadagi islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tashkilot 2025-yilda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan kengroq foydalangan holda PEEL tizimini yanada takomillashtirish maqsadida **Informed Solutions** kompaniyasi bilan hamkorlik o'rnatdi.

2. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish har qanday huquqni muhofaza qilish tizimining ustuvor vazifasidir. Buyuk Britaniya bu borada nafaqat amaliyot, balki profilaktika samaradorligini strategik asosda rejalashtirish va baholash tizimini shakllantirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bunda **SPR** alohida o'rin tutadi.

**Strategic Policing Requirement** (Politsiyaning strategik talablari) – bu strategik yondashuvga asoslangan milliy talablar tizimi [5]. Ushbu tizim Buyuk Britaniya ichki ishlar vazirligi (Home Office) tomonidan qabul qilinadigan milliy hujjat bo'lib, u mamlakat xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy muammolarga politsiyaning tayyorlik darajasini belgilab beradi.

SPRda aniq ko'rsatib o'tilishi kerak bo'lgan yo'nalishlar quyidagilar:

- milliy miqyosdagi xavf-xatarlarni aniqlash;
- ularga qarshi samarali javob qaytarish uchun politsiyaning institutsional salohiyatini baholash;
- xodimlar, resurslar va ma'lumot almashinuvinuvi muvofiqlashtirish.

SPR ilk bor 2012-yilda "Police Reform and Social Responsibility Act 2011" qonuniga muvofiq qabul qilingan bo'lib, u har yili yangilanib boradi va politsiya tizimi uchun majburiy tusga ega.

2023-yilda kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik ham milliy xavf sifatida tan olingan [6]. Shu bilan milliy xavflar tasnifi quyidagi 7 tani tashkil etgan:

- 1) terrorizm;
- 2) jinoiy uyushmalar;
- 3) kiberjinoyatlar;
- 4) bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik;
- 5) ommaviy tartibsizliklar;
- 6) favqulodda vaziyatlar;
- 7) xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik (VAWG – Violence Against Women and Girls).

**SPRda politsiya idoralari uchun quyidagi talablar belgilangan:**

har bir hududiy politsiya xizmati o'z faoliyatini SPR talablariga mos ravishda tashkil qilishi shart;

Police and Crime Commissioner (PCC) tashkiloti – har bir hududdagi politsiyaning faoliyatini baholaydigan va hisobot beradigan mustaqil lavozim joriy etishi zarur;

HMICFRS tashkiloti tomonidan politsiya idoralari PEEL tizimi orqali tekshiriladi;

har yili PCC tashkiloti tomonidan "Assurance Statement" hisoboti tayyorlanadi va jamoatchilikka e'lon qilib boriladi[7].

Bu mexanizmlar profilaktika faoliyatini nafaqat ichki, balki ommaviy hisobdorlik va ochiqlik asosida baholash imkonini beradi.

**Assurance Statement** – bu har yili hududiy politsiya xizmati SPR talablariga qay darajada muvofiq harakat qilayotganini baholagan holda tayyorlanadigan rasmiy hisobot hisoblanadi.

**Ushbu hisobotda quyidagilar qayd etiladi:**

hududdagi tahdidlar tahlili (masalan, terrorizm, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik holati, uyushgan jinoyatchilik kabi SPRda nazarda tutilgan tahdidlar hududda qanday namoyon bo'lmoqda);

xavf-xatarlarga nisbatan politsiyaning shayligi va salohiyati (politsiyaning kadrlar, kuch va vositalar, iqtisodiy resurslar, tahdidlarga oid ma'lumotlar bazasi hamda hamkor tashkilotlar bilan axborot almashinuv va boshqa hamkorligi darajasi);

muvofiqlik darajasi (faoliyat SPR talablari asosida tashkil etilganligi);

yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar tahlili (xizmatni tashkil etish va faoliyatni boshqarishda yo'l qo'yilgan asosiy xato va kamchiliklar);

istiqbolli profilaktik chora-tadbirlar (kelgusidagi aniq rejalar va faoliyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar) [8].

Hisobot har bir hududdagi PCC tashkilotining mas'ul xodimi tomonidan tayyorlanadi va keng jamoatchilikka e'lon qilib boriladi.

**3. Crime Reduction Toolkit** – bu Buyuk Britaniyaning College of Policing (Politsiya kolleji) tomonidan tizimli tadqiqotlar va tajribalar orqali ishlab chiqilgan platforma bo'lib, u jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha foydalanilayotgan profilaktik chora-tadbirlarning (intervensiya) samaradorligini baholaydi. Bunda **EMMIE** deb nomlangan maxsus metodika qo'llaniladi [9].

**EMMIE metodikasi nima?**

EMMIE beshta muhim mezonlarning bosh harflaridan iborat maxsus model hisoblanadi:

**E – effect (ta'sir).** Amalga oshirilgan tadbir jinoyatni kamaytirishga qay darajada xizmat qilganini aniqlash. Masalan, ko'chalarga o'rnatilgan kameralar o'g'irliklarni kamaytirganmi?

**M – mechanism (mexanizm).** Tadbirning ishlash mexanizmi qanday? Amalga oshirilgan chora-tadbirning aynan qaysi xususiyati jinoyatchilikni kamaytirishga ta'sir ko'rsatgan? Masalan, o'rnatilgan kameralar o'g'rilarga psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatib, jinoyat sodir etishdan qaytargan.

**M – moderators (moderatorlar).** Ushbu chora-tadbir qaysi hududlarda yoki qaysi toifadagi shaxslar uchun samarali? Masalan, o'rnatilgan kameralar aholi zich joylarda samaraliroq, chekka hududlarda kamroq natija beradi.

**I – implementation (implementatsiya).** Amaliyotga qanday joriy qilinadi? Bu tadbirni amalga oshirishda qanday usul, sharoit va resurslar kerak? Masalan, politsiya xodimlarini qayta tayyorlash kerak, shuningdek, kerakli texnik vositalarni aniqlash, xarid qilish va tegishli joylarga o'rnatish lozim.

**E – economic cost (iqtisodiy xarajat).** Tadbir qancha xarajat talab qiladi? Xarajatlarning iqtisodiy manbalarini aniqlash lozim.

Bu mexanizm politsiyaga ilmiy asoslangan xulosalarga tayangan holda manzilli qarorlarni qabul qilish, profilaktik chora-tadbir qayerda samarali ishlashi, qaysi bir vosita arzonroq va natijadorligini aniqlashga yordam beradi [10]. Har bir tadbirni EMMIE metodikasi orqali baholab, uni hududning xususiyatiga qarab moslashtirish mumkin. EMMIE metodikasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilib, uning samaradorligi e'tirof etilgan [11].

Profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini baholashda EMMIE metodikasi bilan birga, **SARA** modelidan ham uyg'un holda foydalaniladi. SARA ham quyidagi **to'rtta muhim mezonning** bosh harflaridan iborat maxsus model hisoblanadi [12]:

**S – scan (aniqlash).** Politsiya faoliyatida va muayyan bir hududda yuz berayotgan muammolarni aniqlash. Masalan, muayyan bir hududda o'g'irlik jinoyatlari ko'payib ketdi;

**A – analyse (tahlil).** Muammoning sabab va shart-sharoitlarini, omillarini tahlil qilish. Masalan, o'g'irlik jinoyatlarining sodir etilishi sabablari, shart-sharoitlar va omillarini, o'g'irliklar asosan, qachon, qayerda va qanday usullarda sodir etilayotganligini tahlil qilish;

**R – respond (javob berish).** Tegishli profilaktik choralarni ko'rish. Masalan, kuzatuv kameralarini o'rnatish, aholini ogohlikka chaqirish, hududni to'liq kuzatuvga olish va boshqa profilaktik tadbirlarni o'tkazish;

**A – assess (baholash).** Bu tadbir natija berdimi yoki yo'qmi? Bu bosqichda EMMIE metodikasi ishga tushadi.

SARA modeli va unga doir boshqa jihatlar Buyuk Britaniyalik olimlar Gonzalo Croci, Gloria Laycock & Spencer Chainey [13] tomonidan tadqiq etilib, uning natijadorligi e'tirof etilgan.

**4. Model Process** – bu politsiyaning muayyan xizmat vazifalarini (masalan, jinoyat bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyga yetib borish) qanday bajarilayotganligini aniqlash uchun foydalaniladigan tizim. Bunda politsiyaning muayyan bir faoliyati batafsil tahlil qilinadi va baholanadi.

Masalan, 1-bosqichda xabarni qabul qilish, 2-bosqichda guruhning hodisa joyiga chiqishi, 3-bosqichda tergov (surishtiruv) faoliyati o'rganiladi. Har bir bosqich uchun qancha vaqt, kuch-vosita hamda moliyaviy xarajatlar sarflangani va qanday resurslar talab qilingani hisoblanadi. Aniqlangan ma'lumotlar boshqa politsiya tuzilmalari bilan solishtiriladi, ushbu amaliyot qayerda samaraliroq va qaysi hududlarda samarasizligi aniqlanadi [14].

**Manning Cost Benefit Tool** – taqsimotga asosan kuch va vositalarning xarajati hamda natijadorligini baholash vositasi.

manning (xodimlar);  
cost (xarajat);  
benefit (foyda);  
tool (vosita).

Masalan, 1 ta patrul guruhi kuniga 500 ming so'mlik resurs sarflab, 10 ta jinoyatning oldini olgan. Bunda xarajatga nisbatan natijadorlik qanday? Mana shuni **Manning Cost Benefit Tool** tizimi hisoblab beradi.

Maqsad esa qaysi bo'linma yoki guruh arzon va samarali xizmat ko'rsatayotganini aniqlash hamda uning tajribasini keng targ'ib qilish, shuningdek, politsiya budjetini tahlil qilish, rejalashtirish va isloh qilishdir. Ushbu model hozircha mamlakatdagi 17 ta politsiya bo'linmalarida tajriba tariqasida joriy etilgan.

Yana bir muhim jihat, yuqoridagi barcha chora-tadbirlar "Fit for Purpose", ya'ni "ko'zlangan maqsadga muvofiqlik" tamoyili asosida baholab boriladi[15]. Ushbu tamoyilga ko'ra, muayyan bir tizim, chora-tadbir, vosita, xizmat yoki texnologiya uni qo'llashdan ko'zlangan aniq maqsadga xizmat qilsa, u "fit for purpose", ya'ni "ko'zlangan maqsadga muvofiq" deb hisoblanadi.

Shu sababli taklif etilayotgan har bir yangi mexanizm amaliyotga joriy qilinishdan avval yuqoridagi tamoyil asosida muayyan bir hududda tajriba tariqasida joriy qilinadi va natijalar baholanadi. Eng muhimi, ushbu tamoyil politsiya faoliyatidagi ma'lum bir sohani emas, balki butun bir faoliyatni qamrab oladi. Masalan, zamonaviy texnologiyalar yoki vositalar, sun'iy intellekt, turli dastur va tizimlarning faoliyati ham aynan "fit for purpose" tamoyilidan foydalangan holda baholanadi.

Muayyan bir tizimning ko'zlangan maqsadga muvofiqligi quyidagi beshta mezon asosida aniqlanadi:

1. Maqsad aniqmi? Bu chora-tadbir qanday muammolarni hal qilishga xizmat qiladi?

2. Huquqni qo'llash amaliyotida samara beradimi?

3. Ushbu chora-tadbir qaysi toifadagi shaxslar yoki jinoyat turi uchun mo'ljallangan?

4. Irtiqiy va gender tengligi ta'minlanganmi? Yosh bo'yicha diskriminatsiyasiz ishlaydimi?

5. Shaffoflik va ochiqlik ta'minlanganmi? Jamoatchilik va ijtimoiy nazorat nazarda tutilganmi?

Agar tizim yoki dastur ushbu savollarga ijobiy javob bersa, u "fit for purpose" hisoblanadi. Ushbu tamoyil qonunga xilof tarzda qarorlar qabul qilishning oldini olish bilan birga, iqtisodiy va boshqa resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Miri Zilka, Holli Sargeant, Adrian Weller [16] kabi olimlar tomonidan profilaktik tadbirlar

samarali va maqsadga muvofiq bo'lishi, ijtimoiy nazorat va ochiqlik ta'minlanishi uchun ushbu tamoyilni mamlakatdagi barcha sohalarga keng targ'ib qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Yuqorida Buyuk Britaniyadagi profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini baholashning huquqiy va tashkiliy masalalari tadqiq etildi. Bunga o'xshash mexanizmlarni mamlakatimiz huquqni qo'llash tizimida ham uchratish mumkin. Masalan, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligi muayyan bir davrda (odatda, har besh yilda) o'rganilib, baholab boriladi.

Bu o'rganishlar "kompleks inspektorlik tekshiruvi" deb nomlanadi. Buyuk Britaniya tajribasidan farqli ravishda bunday tekshiruvlar Vazirlik tarkibiy tuzilmalari xodimlaridan iborat maxsus ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Har bir ishchi guruh uchun reja-topshiriq va unda aniq vazifalar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, IIV Akademiyasi tomonidan profilaktika inspektorining bilim va amaliy ko'nikmalarini masofaviy shaklda, xizmatdan ajratmagan holda muntazam oshirib borish maqsadida "E-Akademiyasi" onlayn o'qitish tizimi yaratildi. Platforma Xorazm viloyati hududida sinov tariqasida to'liq ishga tushirilib, unga viloyatdagi barcha profilaktika inspektorlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq joylashtirilgan.

Platformaga joylashtirib borish uchun interaktiv ta'lim materiallari tayyorlanib, profilaktika inspektorlarining xizmat planshetlariga platformaning mobil ilovasi o'rnatilgan.

Jumladan, o'tgan davr mobaynida (1-21 iyul kunlari) profilaktika inspektorlari tomonidan o'zlashtirib borish uchun platformaga quyidagi mavzularga oid **15 ta** interaktiv ta'lim materiali, **10 dan** ortiq normativ-huquqiy hujjat, **15 ta** adabiyot, **20 ta** protsessual hujjat namunasi joylashtirildi:

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi (dastlabki haftada);

Jinoyat tushunchasi, tarkibi. Jinoyatlarni tasniflash. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar (ikkinchi haftada);

Ichki ishlar organlari xodimlarining, shu jumladan profilaktika inspektorlarining huquqlari (uchinchi haftada);

Normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati (to'rtinchi haftada).

Profilaktika inspektorlari tomonidan tizimga yuklangan materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida **3 marotaba** test sinovi o'tkazildi.

IIV Akademiyasi va Xorazm viloyati IIB rahbariyati tomonidan 2025-yil 16-iyunda qo'shma farmoyish imzolani, hududiy IIOlari rahbarlari tomonidan profilaktika inspektorlarining platformadan foydalanishi, undagi ma'lumotlar bilan doimiy tanishib borishi va test sinovlarida faol ishtirok etishi ustidan kunlik nazoratni amalga oshirish belgilandi.

Afsuski, respublika miqyosida bu kabi platformalarning soni juda kam, shuningdek, ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmat xodimlarining kunlik bilimlarini oshirib borishga xizmat qiladigan "E-Akademiya"ga o'xshash platformalar mavjud emas.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Buyuk Britaniyaning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda ichki ishlar organlari faoliyati natijadorligini oshirish, shu jumladan, profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

*1. Ilmiy-amaliy tadqiqotlarga asoslangan baholash metodikalarini amaliyotga joriy qilish.*

EMMIE va SARA metodikalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirib, profilaktik choralarni baholashda qo'llash lozim. Masalan, ko'chalarda o'rnatilgan kuzatuv kameralarining samaradorligini EMMIE metodikasi asosida tahlil qilish uning natijadorligini yanada oshirish imkonini beradi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot loyihalarini ko'paytirish zarur.

*2. Xalqaro va milliy standartlarga javob beradigan baholash mezonlari va shkalalarini ishlab chiqish.*

PEEL tizimidagi 5 bosqichli baholash shkalasiga (a'lo, yaxshi, qoniqarli, yaxshilash talab qilinadi, qoniqarsiz) o'xshash mexanizmlarni ishlab chiqish va uni normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlash, bunda "Fit for Purpose" tamoyiliga asoslangan mezonlar (maqsadga muvofiq-

ligi, ijtimoiy adolat ta'minlanganligi, oshkoralik va shaffoflik)ga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

*3. Mazkur tizimga raqamli platformalarni keng joriy qilish.*

Crime Reduction Toolkit kabi raqamli platformalarni yaratib, profilaktik choralarni samaradorligini avtomat tahlil qilish imkoniyatlarini oshirish lozim. Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimini joriy qilish uchun xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish mazkur jarayonlarning yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

*4. Hududlardagi o'rganishlar jarayonida aniqlangan ijobiy tajribalarni respublika miqyosida joriy qilish.*

Joylardagi ijobiy tajribalarni aniqlash, ularni boshqa tarkibiy tuzilma (bo'linma)lar faoliyatiga joriy qilish, shuningdek, Rank Success Blog kabi ommaviy raqamli platformalarni yaratib, ular orqali ijobiy tajribalarni barcha xodimlar orasida keng targ'ib qilish lozim.

*5. Xodim va rahbarlar, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini adolatli baholash bo'yicha zamonaviy modellarni yaratish.*

Manning Cost Benefit Tool kabi modellarni qo'llab, xodimlarning xizmat, xarajat va natijadorlik nisbatini doimiy tahlil qilib borish, kamchiliklar bilan birga ijobiy yutuqlarni ham e'tirof etish tizim natijadorligi hamda xodimlarda ishchanlik kayfiyatini oshirish orqali huquqbuzarliklarga nisbatan samarali qarshi kurashish imkonini beradi.

*6. O'rganishlar jarayonining davriyligini qisqartirish.*

Tarkibiy tuzilmalarning butun bir faoliyatini har besh yilda, biroq huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini har ikki yilda baholash hamda hisobotlarni keng jamoatchilikka taqdim etib borish, shuningdek, Buyuk Britaniyaning SPR kabi milliy xavf-xatarlarga asoslangan yillik baholash tizimini joriy qilish zarur.

7. Har bir profilaktika inspektori faoliyatiga nisbatan maxsus jamoatchilik so'rovlarini (onlayn va offlayn) tashkil etish, "Mahalla fikri" platformasi

yoki Telegram bot orqali nazorat va baholash interfeysini joriy etish. Har bir xodim uchun “yagona natijadorlik faoliyati indeksi”ni ishlab chiqish, respublika miqyosida “Ijoiy tajribalar reyestri”ni tashkil etish va yuritib borish.

Xulosa qilib aytganda, Buyuk Britaniyaning “Fit for Purpose” tamoyillariga asoslangan taj-

ribalari bildirilgan muammolarni tez va ijobiy hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, yuqorida sanab o'tilgan takliflar ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning ishonchini mustahkamlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan manbalar

1. HMICFRS – Making communitiessafer. <https://hmicfrs.justiceinspectorat-es.gov.uk/peel-assessments/what-is-peel/>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
2. Jak Keys. HMICFRS partners with Informed to accelerate the development of an AI-Driven Early Warning System for Police Force Inspections. <https://www.informed.com/news/hmicfrs-partners-informed-ai-early-warning/>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
3. Jamie Wilson. Peeling Back and Addressing the Layers of HMICFRS Assessment Recommendations. October 23, 2024. <https://www.nicepublicsafety.com/blog/peeling-back-and-addressing-the-layers-of-hmicfrs-assessment-recommendations?>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
4. Rank Success Blog. Free UK Police Promotion Support to Sergeant, Inspector and Beyond. CPD, Police Reports HMICFRS Give Mixed Reviews in First 2025 PEEL Inspections. <https://policepromotion.blog/2025/02/11/hmicfrsgive-mixedreviewsinfirst2025peelinspections> (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
5. GOV.UK. Strategic Policing Requirement 2023. <https://www.gov.uk/government/publications/strategic-policing-requirement-2023>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
6. NPCC National Police Chiefs' Council. Violence Against Women and Girls. <https://www.npcc.police.uk/our-work/violence-against-women-and-girls/>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
7. APCC – Association of Police and Crime Commissioners. <https://www.apccs.police.uk>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
8. Liza Taunsend. Measuring performance. Annual Report 2023-24. <https://www.surrey-pcc.gov.uk/>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
9. College of Policing. What Works Centre for Crime Reduction. [Whatworks.college.police.uk](https://whatworks.college.police.uk). (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
10. College of Policing. About the crime reduction toolkit and EMMIE framework. <https://www.college.police.uk>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
11. Shane D. Johnson, Nick Tilley & Kate J. Bowers. Introducing EMMIE: an evidence rating scale to encourage mixed-method crime prevention synthesis reviews. <https://link.springer.com/article>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
12. College of Policing. Problem-solving policing. <https://www.college.police.uk>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
13. Gonzalo Croci, Gloria Laycock & Spencer Chainey. A realistic approach to policy formulation: the adapted EMMIE framework. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
14. Matthew Manning, Gabriel T. W. Wong, Timothy Graham, Thilina Ranbaduge, Peter Christen, Kerry Taylor, Richard Wortley, Toni Makkai & Pierre Skorich. Towards a 'smart' cost-benefit tool: using machine learning to predict the costs of criminal justice policy interventions. <https://link.springer.com/article>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
15. Charlie Cooper. The Respect Agenda: fit for purpose?. <https://www.criminologyandjustice.org.uk/sites/default/files/09627250708553200.pdf>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).
16. Miri Zilka, Holli Sargeant, Adrian Weller. Transparency, Governance and Regulation of Algorithmic Tools Deployed in the Criminal Justice System: a UK Case Study. <https://www.researchgate.net/publication/360962519>. (Elekton manbaga murojaat qilingan sana: 16.06.2025-y.).